

PAPER

GAPIRISHDA NUQSONI BOLGAN MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TARBIYALASHDA INNAVATSION YONDASHUV

Jumaniyozova Kamolat Botirboyevna ^{1,*}

¹Iqtisodiyod va Pedagogika Universiteti 1- bosqich magistiri

* jumaniyozova@gmail.com

Abstract

Ushbu maqolada gapirishda nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash va rivojlantirish jarayonida innovatsion pedagogik yondashuvlarning o'rni va ahamiyati yoritib beriladi. Nutq nuqsonlari bolalarning kommunikativ rivojlanishi, psixologik holati va ijtimoiy moslashuviga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishi sababli, zamonaviy ta'lim tizimida ularni erta aniqlash, kompleks diagnostika qilish va samarali ta'lim-tarbiya metodlarini qo'llash muhim vazifalardan biridir. Tadqiqotda logopedik texnologiyalar, raqamli o'yin dasturlari, sensor-integrativ mashg'ulotlar, multimodal ta'lim vositalari, ART va STEAM elementlari kabi innovatsion metodlarning nutq nuqsonlarini kamaytirish va bola shaxsining rivojlanishiga ijobiy ta'siri tahlil qilinadi.

Key words: Maktabgacha ta'lim, nutq nuqsoni, innovatsion ta'lim texnologiyalari, logopedik yondashuv, raqamli o'yinlar, sensor-integrativ metodlar, multimodal ta'lim.

KIRISH

Maktabgacha ta'limning zamonaviy kontseptsiyasi, maktabgacha ta'limning mazmuni va tabiatiga bo'lgan talablarning o'zgarishi nutqni rivojlantirishning muhim yo'nalishi bo'lgan ko'pqirrali ajralmas jarayon sifatida maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanishini takomillashtirish zarurligini oldindan belgilab beradi. Shu munosabat

bilan maktabgacha yoshdagi bolalarni o'rganishga, o'z ona tilida va boshqa fanlardan dasturni o'zlashtirishga tayyorligi masalalari katta ahamiyatga ega. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarga korreksion, ya'ni tuzatuvchi yordam berish ta'lim sohasidagi ustuvor yo'nalishlardan biridir.

Maktabgacha ta'limning zamonaviy kontseptsiyasi, maktabgacha ta'limning mazmuni

Compiled on: December 4, 2025.

Copyright: ©2025 by the authors. Submitted to *Advances in Science and Education* for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](#).

va mohiyatiga o'zgaruvchan talablar nutqni rivojlantirishning muhim yo'nalishi bo'lgan ko'p qirrali yaxlit jarayon sifatida maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanishini takomillashtirish zarurligini oldindan belgilab beradi [1]. Nogiron bolalar bilan ishlashda biz bolalarda o'qish va o'rganish uchun motivatsiya deyarli yo'q yoki juda past ekanligini, e'tiborni jalb qilishda qiyinchilikka uchrashini, fonetik va fonemik nutqning rivojlanmaganligini, tez charchashni, leksik va grammatik nutqning rivojlanmaganligini, gipo- yoki giperaktivlikni kuzatamiz.

Bugungi kunda ushbu muammolarni hal qilishga axborot-kommunikatsion texnologiyalari yordam beradi. Rang, harakat, tovush - bu bolalar e'tiborini uzoq vaqt ushlab turadigan, o'quv jarayonini ongli qiladigan omillardir. Bundan tashqari, nutqdagi nuqsonlarni tuzatish uchun bolalarning o'zaro muomala qilish qobiliyatini, atrofdagi kattalar va tengdoshlari bilan faol aloqada bo'lish qobiliyatini ta'minlaydigan nutq muhitini yaratish katta ahamiyatga ega. Va bu ishda ham motivatsiya manbalaridan biri sifatida bizga kompyuter texnologiyalaridan foydalanish yordamga keladi. Kompyuter texnologiyalari maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'lum bir o'yin vaziyatiga tushirishga, to'g'ridan-to'g'ri ta'lim faoliyatini yanada mazmunli, qiziqarli, jozibali va haqiqatan ham zamonaviy qilishga imkon beradi.

Axborot texnologiyalari so'nggi paytlarda nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan korreksion va rivojlantirish ishlarining istiqbolli vositasiga aylandi. Kompyuter texnologiyalari maxsus pedagogikada tobora ko'proq qo'llaniladigan eng samarali o'qitish vositalaridan biridir. Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, kompyuter vositalari mutaxassis uchun korreksiya ta'limi tarkibining bir qismi emas, balki bola rivojlanishidagi og'ishlarni tuzatish uchun qo'shimcha imkoniyatlar to'plamini taqdim etadi.

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan tuzatish va tarbiyaviy ishlar ixtisoslashtirilgan yoki moslashtirilgan kompyuter dasturlaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Ularni qo'llash samarasi o'qituvchining kasbiy kompetentsiyasiga, yangi imkoniyatlardan foydalanish qobiliyatiga, har bir bolaning ta'lim tizimiga AKTni kiritishga, ko'proq motivatsiya va psixologik qulaylikni yaratishga, shuningdek o'quvchiga faoliyatning

shakllari va vositalarini tanlash erkinligiga bog'liqdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitish va o'qitishning an'anaviy shakllari bilan taqqoslaganda AKT bir qator afzalliklarga ega:

- ma'lumotni kompyuter ekranida o'yin uslubida namoyish qilish bolalarda katta qiziqish uyg'otadi;
- harakatlar, tovush, animatsiya uzoq vaqt davomida bolaning e'tiborini tortadi;
- muammoli vazifalarni belgilash, bolani kompyuterning o'zi hal qilishi bilan rag'batlantirish, bu bolalarning bilim faoliyati uchun rag'batlantiruvchi omil;
- kompyuter maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda individual yondashuvni amalga oshirish imkoniyatini beradi. Faoliyat jarayonida har bir bola o'ziga xos darajadagi vazifalarni va o'z tezligida bajaradi.[3]

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot gapirishda nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda innovatsion yondashuvlarning samaradorligini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqotda empirik (kuzatuv, test, intervyu) va eksperimental (nazorat va tajriba guruhi bilan mashg'ulotlar) usullar qo'llanildi. Tajriba guruhi uchun multisensorli o'yinlar, interaktiv doskalar, raqamli logopedik ilovalar va musiqa-ritmik mashqlar tatbiq etildi. Natijalar statistik tahlil qilinib, innovatsion va an'anaviy metodlarning samaradorligi solishtirildi. Tadqiqot psixologiya, logopediya va maxsus pedagogika nazariyalari asosida olib borildi.

Bugungi kunda Rossiyalik logopedlar uchun turli kompyuter dasturlari va dasturiy vositalar ishlab chiqilgan bo'lib, ularni qo'llash borasida ma'lum tajriba to'langan. Bu tajriba bilan Internet orqali tanishish mumkin. Mutaxassislar zamonaviy interfaol johozlardan "Interaktiv pol" "Interaktiv qumdon Interaktiv ekran" "Logomer" dasturi o'rnatilgan interaktiv majmuadan foydalanishni tavsiya qilishmoqda.

"Interaktiv pol" noyob ishlanma bo'lib, video va tasvirlarni polda aks ettirish imkonini beradi. O'rgatuvchi projektsiyalar yordamida narsalarning rangini, shaklini, nomini aytadilar. Interaktiv qumdonidagi o'yinlar bolaning hissiy holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, qum bilan o'ynab, izchil gapirishni, jumlar tuzishni o'rganadilar.

”Logomer bu logoped va defektolog uchun dasturiy-didaktik majmuadir. Majmuada logopedik va korreksion mashg’ulotlarning asosiy mavzulari va maktabgacha yoshdagi bolalar bilan korreksion darslar bo’yicha o’yinlar va mashqlar mavjud. Dasturning maqsadi rus tilidagi tovushlarni, so’zlarni to’g’ri talaffuz qilish ko’nikmalarini rivojlantirish va izchil gapirish, mustaqil ravishda iboralar va jumalarni qurish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Mazkur dasturda keltirilgan mashq va o’yinlardan o’zbek tiliga moslashtirib o’zbek guruhlarida foydalansa, maqsadga muvofiq bo’lardi.

Interfaol ekranni ishlatish korreksion-rivojlantiruvchi ishlarni hayajonli, dinamik, rang-barang qilishiga va bolalarning fikr-mulohazalarini olishga yordam beradi. Interfaol ekran uning komplektasiyasiga kiruvchi standart dasturiy ta’minotdan va mualliflarning taqdimotlari, simulyatorlari, videofilmlari, kompyuter o’yinlari va hokazolardan foydalanish imkonini beradi. Interaktiv uskunalaridan foydalanish bolalar charchashining oldini oladi, ularning bilish faoliyatini qo’llab-quvvatlaydi, umuman ish samaradorligini oshiradi. Nutqni rivojlantirish darslarida ulardan foydalanish bolalar uchun qiziq va ularning e’tiborini tortadi.

Nutqida nuqsoni bo’lgan maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda innovatsion yondashuvlarning nazariy asoslari ko’plab ilmiy tadqiqotlarda keng yoritilgan. Xususan, logopedik amaliyotda zamonaviy metodlar tasnifi R. E. Levinaning “Основы логопедии” asarida [4] batafsil bayon etilgan. Levina an’anaviy artikulyatsion mashqlarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan uyg’unlashtirish natijasida fonetik-fonematik rivojlanish yanada tezlashishini ta’kidlaydi. Muallif AKT asosidagi logopedik dasturlar bolaning eshitish-motor koordinatsiyasi va talaffuzini yaxshilashda samarali bo’lishini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Nutq buzilishlarini erta aniqlashning psixolingvistik mexanizmlari haqida esa L. S. Vigotskiyning “Мышление и речь” asarida [5] muhim ilmiy g’oyalar ilgari surilgan. Vigotskiyga ko’ra, bolalardagi nutq rivojlanishi psixik jarayonlar bilan chambarchas bog’liq bo’lib, diagnostika jarayonida multimodal yondashuv — vizual,

eshituv, kinestetik testlardan foydalanish erta aniqlash samaradorligini oshiradi. Bugungi kunga kelib ushbu yondashuv innovatsion diagnostika platformalarida keng tatbiq etilmoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mo’ljallangan interaktiv ta’lim platformalarining nutq rivojiga ta’siri bo’yicha tadqiqotlar N. N. Malofeyevning “Инклюзивное образование: развитие, проблемы, решения” asarida [6] o’z ifodasini topgan. U o’yinli raqamli dasturlar, virtual mashg’ulotlar va audio-vizual stimullar bolaning nutq faolligini oshirishi, o’zlashtirish sur’atini individuallashtirish imkonini berishini asoslab beradi.

Sensor-integrativ terapiyaning logopedik jarayondagi o’rni bo’yicha asosiy ilmiy qarashlar A. Jean Ayresning mashhur “Sensory Integration and the Child” asarida [7] yoritilgan. Ayresning fikricha, bolaning eshitish, ko’rish, vestibulyar va taktil tizimlarining uyg’un ishlashi og’zaki nutqning shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu sababli sensorli o’yinlar, proprioseptiv mashqlar, muvozanat mashg’ulotlari nutq rivojlanishida kuchli innovatsion mexanizm sifatida qaraladi.

Bo’lajak nutq faoliyatini rivojlantirishda art-terapiyaning o’rni E. V. Bondarevskayaning “Личностно-ориентированное образование” asarida [8] keng tahlil qilingan. U kreativ o’yinlar, dramatizatsiya, qo’g’irchoq terapiyasi bolalarning emotsional barqarorligini kuchaytirishi va o’zini erkin ifoda etish imkonini berishini ilmiy asoslar bilan ko’rsatadi. Ushbu yondashuv gapirishda nuqsoni bo’lgan bolalarda kommunikativ faollikni oshirishning samarali vositasi hisoblanadi.

Kompleks yondashuvning yana bir muhim jihati — pedagog, logoped va ota-onalar hamkorligining uzviyligi bo’lib, bu tamoyil S. D. Zykovaning “Коррекционно-развивающая работа с детьми дошкольного возраста” asarida [9] ilmiy asosda yoritilgan. Zyкова uy sharoitida davom ettiriladigan mashqlar, ota-onalar uchun onlayn konsultatsiyalar va interaktiv logopedik kuzatuv tizimlarining samaradorligini ta’kidlaydi.

Umuman olganda, o’rganilgan adabiyotlardan ko’rinadiki, nutqida nuqsoni bo’lgan maktabgacha yoshdagi bolalar bilan innovatsion yondashuv asosida ishlash — raqamli logopedik dasturlar, sensor-integrativ terapiya, art-terapiya va oilaviy hamkorlik asosidagi kompleks pedagogik fa-

oliyatni talab qiladi. Bu metodlar bolaning ijtimoiy, kommunikativ va nutqiy rivojlanishini sezilarli darajada qo'llab-quvvatlaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Gapirishda nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash jarayonida innovatsion pedagogik yondashuvlarni qo'llash samaradorligini aniqlash maqsadida o'tkazilgan tadqiqot natijalari quyidagilarni ko'rsatdi. Tadqiqotda 5 ta maktabgacha ta'lim muassasasida jami 45 nafar bolalar ishtirok etdi. Ularning nutqiy rivojlanish darajasi dastlab logopedik diagnostika vositalari yordamida baholandi. Diagnostika quyidagi parametrlar bo'yicha olib borildi: artikulyatsiya aniqligi, so'z boyligi, fonemik sezgirlik, nutqning ohang va ritmi, muloqotga bo'lgan qiziqish va ijtimoiy faollik.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, bolalarning taxminan 60 foizda gapirishda fonetik va artikulyatsion qiyinchiliklar, 40 foizida esa so'z boyligi va sintaksisni shakllantirishda muammolar mavjud edi. Shu bilan birga, ba'zi bolalarda ikkala muammo birgalikda kuzatildi. An'anaviy mashg'ulotlar bilan ishlash bu guruhdagi bolalarning rivojlanish sur'atini sekinlashtirgan, motivatsiyani esa past darajada saqlagan.

Innovatsion yondashuvlarni qo'llash jarayonida bolalarga multisensorli o'yin mashg'ulotlari, raqamli logopedik ilovalar, interaktiv stol va doskalar, musiqali va ritmik mashqlar, shuningdek sensor-integrativ mashqlar taqdim etildi. Mashg'ulotlar haftasiga 3 marta, har bir sessiya 30–40 daqiqa davomida olib borildi. Har bir bolaning individual xususiyatlari hisobga olindi: masalan, ba'zi bolalar vizual stimullarga ko'proq reaksiya berishi, boshqalari esa kinestetik mashqlarga yaxshiroq javob berishi aniqlangan.

Olingan natijalar tahlili shuni ko'rsatdiki, innovatsion metodlar bolalarning nutqiy ko'nikmalarini sezilarli darajada yaxshiladi. Artikulyatsiya aniqligi o'rtacha 25foizga, so'z boyligi esa 30 foizga oshdi. Fonemik sezgirlik va ohangni tushunish ko'nikmalari 20–22 foizga rivojlandi. Muloqotga bo'lgan qiziqish va ijtimoiy faollik ham sezilarli darajada oshdi: bolalar o'yinlarda faolroq ishtirok etdi, o'zaro muloqot qilishga, hikoya tuzishga va savol-javob mashg'ulotlariga qiziqish ko'rsatdi.

Analiz shuni ko'rsatdiki, multisensorli yondashuv eng samarali usul sifatida ajralib turadi. Masalan, artikulyatsion mashqlarni vizual va kinestetik komponentlar bilan birlashtirish natijasida bolalar talaffuzni tezroq o'zlashtirdi. Shu bilan birga, raqamli logopedik ilovalar mustaqil mashq qilish imkonini berib, bolaning o'zini sinab ko'rishiga sharoit yaratdi va individual sur'at bilan rivojlanishni ta'minladi. Musiqali va ritmik mashqlar esa nafas olishni boshqarish, ritm va intonatsiyani shakllantirish orqali nutqni yanada silliq va aniq qildi.

Shuni ta'kidlash kerakki, innovatsion metodlar bilan ishlash jarayonida ota-onalar bilan hamkorlik muhim rol o'ynadi. Ota-onalar uy sharoitida mashg'ulotlarni davom ettirdi, logopedik tavsiyalarni bajardi va bolalarning natijalarini kuzatib bordi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, pedagog–logoped–ota-ona uchburchagi asosida olib borilgan faoliyat natijalarni yanada mustahkamladi.

Tahlil davomida aniqlandi: eng yuqori samaradorlik multisensorli o'yinlar va interaktiv raqamli platformalarni birlashtirganda kuzatildi. Bunday kombinatsiya bolaning barcha sezgilarini jalb qiladi, nutqiy mashqlarni qiziqarli va interaktiv qiladi, shuningdek, motivatsiyani saqlashga yordam beradi. Shu bilan birga, individual yondashuv har bir bolaning o'ziga xos qobiliyatlarini hisobga olish imkonini beradi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, innovatsion metodlarning qo'llanilishi bilan bolalarning nutqiy rivojlanish darajasi o'rtacha 25–30 foizga oshdi, bu esa an'anaviy metodlarga nisbatan sezilarli farqni ko'rsatadi. Bundan tashqari, bolaning ijtimoiy faolligi va muloqotga bo'lgan qiziqishi ham oshdi, bu esa ularning o'zaro muloqot va ijtimoiy integratsiyasi uchun muhim omil hisoblanadi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, gapirishda nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash jarayonida innovatsion yondashuvlarni qo'llash nafaqat nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish, balki psixologik barqarorlik, motivatsiya va ijtimoiy faollikni oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, innovatsion metodlar o'quv jarayonini qiziqarli, interaktiv va samarali qiladi, bu esa bolalar va tarbiyachilar tomonidan ijobiy baholangan.

XULOSA

Umumiy xulosaga ko'ra, tadqiqot natijalari innovatsion yondashuvlarning gapirishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun muhim samarali vosita ekanligini tasdiqlaydi. Multisensorli o'yinlar, raqamli logopedik platformalar, art-terapiya va musiqa-ritmik mashqlar birgalikda qo'llanganda nutqni rivojlantirish tezligi va samaradorligi sezilarli darajada oshadi. Shu bilan birga, ota-onalar bilan integratsiyalashgan hamkorlik, individual yondashuv va motivatsiyani qo'llab-quvvatlash natijalarni yanada mustahkamlaydi.

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, innovatsion yondashuvlar maktabgacha ta'lim muassasalarida gapirishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlash jarayonini optimallashtirishga imkon beradi va kelajakda ularni umumiy ta'lim jarayoniga muvaffaqiyatli integratsiya qilishni ta'minlaydi. Shu asosda, pedagogik amaliyotda innovatsion metodlarni keng joriy etish tavsiya etiladi.

References

1. Адаптированная примерная основная образовательная программа для дошкольников с тяжелыми нарушениями речи. – СПб., 2014.
2. Болибеков А.А., Эгамбердиева М.Г. Совместная работа воспитателя и логопеда дошкольного учреждения по устранению речевых нарушений у детей. // Вестник науки и образования. 2020. №10(88). Часть 3. С. 60–62. URL: <http://scientificjournal.ru/images/PDF/2020/88/VNQ-10-88-III-.pdf> (Дата обращения 12 ноября 2020 г.)
3. Легачева Е. Н., Кочелакова О. Д. Развитие речи детей старшего дошкольного возраста посредством использования ИКТ технологий // Молодой ученый. – 2016. – №7. – С. 666–669.
4. Левина Р. Е. Основы логопедии: Учебное пособие. — М.: Просвещение, 2015.
5. Виготский Л. С. Мышление и речь. — М.: Педагогика, 1982.
6. Малофеев Н. Н. Инклюзивное образование: развитие, проблемы, решения. — СПб.: Питер, 2014.
7. Ayres A. J. Sensory Integration and the Child. — Los Angeles: Western Psychological Services, 2005.
8. Бондаревская Е. В. Личностно-ориентированное образование: теория и практика. — М.: Академия, 2012.
9. Зыкова С. Д. Коррекционно-развивающая работа с детьми дошкольного возраста. — М.: Владос, 2010.